



ARTICLE INFO

Received: 04th January 2023

Accepted: 14th January 2023

Online: 16th January 2023

KEY WORDS

Yer va suv resurslari, qishloq xo'jaligi, sug'oriladigan yerlar, aholi bandligi, foydalanilgan suv miqdori.

HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YER VA SUV RESURLARINING AHAMIYATI

¹Ibragimov Lutfullo

Samarqand davlat universiteti dotsenti,

²Muminjonova Saodat

Samarqand davlat universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7539710>

ABSTRACT

Mazkur maqolada respublikamizning janubi—g'arbiy mintaqasidagi viloyatlarning qishloq xo'jaligini yer va suv resurslaridan foydalanishi holati va uning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Maqolaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari hamda uning iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri hamda qishloq xo'jaligining rivojlanishidagi ahamiyati baholangan.

Kirish. Suv—muhim va cheklangan resurs bo'lib, uning manbalarini egallash hozirdanoq geosiyosatning zaruriy omillaridan biri bo'lib, yer sharidagi keskinliklar va muammoli vaziyatlarning sabablaridan biriga aylanib bormokda. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda suv resurslarining samarali foydalanish bilan birga bevosita aholi bandligiga ta'siri ham o'rganilgan. Biroq, suv resurslarini aholi bandligiga bilvosita ta'siri chuqur tadqiq etilmagan muhim qismidir. Bunda turizm, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa tarmoqlarda band bo'lgan aholining barqaror ish joylariga ega bo'lishi suv resurslari bilan bog'liqligi alohida o'rganilishi lozim, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi hududining deyarli yarmini egallagan o'lka yer maydonining kattaligi va, ayni vaqtda, suv zaxiralari yetishmasligi bilan tavsiflanadi. Shu bois, ko'rilayotgan hududning katta qismida intensiv ravishda rivojlanayotgan xo'jalik tarmoqlari mavjud emas. Ba'zi xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda suv resurslarining bevosita aholi bandligiga ta'siri o'rganilgan. Biroq bilvosita ta'siri ham alohida o'rganilishi lozimdir. Bunda turizm, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa tarmoqlarda band bo'lgan aholining barqaror ish joylariga ega bo'lishi suv resurslari bilan bog'liqligi alohida ko'rib chiqilishi lozim, deb hisoblaymiz. Xizmat ko'rsatish ob'ektlarining suv manbalariga yaqin joylashishi ayni zaruriy shartlardan biridir. Ana shu manbalarning keskin kamayishi mos holda xizmat ko'rsatishga ta'sir ko'rsatadi.

Oxir-oqibat aholining doimiy ish bilan bandlik imkoniyatlarini kamaytiradi. 2017 yildagi statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ish bilan band aholi soni hududlar kesimida tahlil etilganda, eng yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyati bo'yicha (jami bandlar soniga nisbatan ulushi 48%), Jizzaxda – 41,8%, Surxondaryoda – 36,9%, Xorazmda – 35,6 foiz, Buxoroda – 30,2 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 29,9%, Qashqadaryoda – 28,2% ni tashkil etadi. Ish bilan band aholi sonining asosiy qismi (27,3 foizi) [1] qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohalaridaligini hisobga



olsak, bu bevosita mintaqa qishloq xo'jaligining qay darajada suv resurslari bilan ta'minlanganligiga bog'liqligini belgilab beradi.

Tadqiqot ishida iqtisodiyotning barcha sohalarida foydalanilgan suv resurslarining hududlar aholi soniga nisbatini o'rganishga harakat qilindi. Foydalanilgan suv resurslarining qishloq aholi soniga nisbati tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Buxoro (0,3m³), Samarqand (0,7m³), Surxondaryo (0,4m³), Navoiy (0,3m³), Qashqadaryo (0,3m³) da to'g'ri keladi. O'rganilayotgan hududlardagi ko'rsatkichlar, respublikadagi o'rtacha ko'rsatkichdan (0,4m³) bir necha barobar pastligini ko'rish mumkin. Mintaqa viloyatlaridan o'tuvchi daryolar, kanallar, suv omborlari va yer osti suvlaridan foydalanish evaziga qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni ortib bormoqda.

Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog' tumanlari daryo suvlaridan, Nishon, Koson, G'uzor, Kasbi va Qarshi tumanlari Qarshi magsitral kanali hisobidan yaxshi ta'minlangan. Viloyatning qolgan tumanlari suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanmagan. Navoiy viloyatining Karmana, Qiziltepa, Navbahor va qisman Xatirchi tumanlari suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan bo'lib, ushbu tumanlar viloyat qishloq xo'jaligining asosini tashkil qiladi. Viloyatning qolgan tumanlari yaylov chorvachiligi va lalmi dehqonchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, lekin u aholi bandligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. O'rganilayotgan mintaqaning Buxoro viloyati tabiiy sharoitidagi noqulayliklar tufayli qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligi bo'yicha mamlakatda eng oxirgi o'rinlardan birini egallaydi. Faqatgina Amudaryodan keluvchi Amu-Buxoro kanali boshlanadigan qismidagi Olot va Qorako'l va qisman Vobkent tumanlari qishloq xo'jaligi suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Viloyatning qolgan Olot, Shofirkon, Qorako'l, Peshku va G'ijduvon tumanlarining suv resurslari bilan ta'minlanish darajasi nisbatan pastroq. Shuning uchun Navoiy va Buxoro viloyatlarida qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining ulushi boshqa viloyatlarga nisbatan pastroq.

Surxondaryo viloyati respublikadagi eng yirik sug'oriladigan dehqonchilik hududidir. Amudaryo, Dashnobod, Sangardak, Kofirnigon, To'palang, Qoratog', Xo'jaipok, Surxon, Sherobod daryolari, qisman buloqlar viloyat xo'jaliklari va aholisini suv bilan ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Shuningdek, viloyatda suv tanqisligini bartaraf yetish uchun qo'shni Tojikiston Respublikasidan suv olish uchun foydalaniladigan Amudaryo, yer osti suvlari va Hisor kanalidan qo'shimcha suv nasos stansiyalari orqali ta'minlanadi. Qishloq xo'jaligini suv ta'minotini yaxshilash maqsadida "Amu-Surxon" sug'orish tizimlari boshqarmasi tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga "Surxon magistral", "To'polang-Qoratog'", "Surxon-Sherobod", "Amu-Zang" irrigatsiya tizimlari kiradi. Viloyatda suvdan samarali foydalanish va uni taqsimlash maqsadida "Janubiy Surxon", "Uchqizil", "Oqtapa", "To'palang", "Degrez" suv omborlari barpo etilgan. Sug'oriladigan yerlardan yiliga o'rtacha 300-430 million m³ shartli chuchuk suv Surxon, Bandixonsoy, Oltinsoy, Qizilsuv kabi daryo va soylarga quyilib, qayta sug'orish uchun foydalaniladi. Viloyatning Muzrabot, Sherobod va qisman Angor tumanlaridan tashqari barcha tumanlarning qishloq xo'jaligi suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Shuning uchun ham, viloyat qishloq xo'jaligida band bo'lganlar ulushi boshqa viloyatlarga nisbatan ko'proq. Buning asosiy sababi, viloyat hududi suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligidir.



Mintaqaning Samarqand viloyati ham suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Viloyat qishloq xo'jaligida Zarafshon daryosi, suv omborlar, yer osti suvlari muhim ahamiyatga ega. Samarqand, Kattako'rg'on, Narpay, Pstdarg'om, Payariq, Jomboy, Ishtixon tumanlari suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Nisbatan yaxshi ta'minlangan hududlarga Tayloq, Oqdaryo, Urgut, Bulung'ur va Paxtachi tumanlari kiradi. Qolgan Nurobod va Qo'shrabot tumanlari suv resurslari bilan ta'minlanish darajasi juda past hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan, so'nggi yillarda mazkur tumanlarda yer osti suvlaridan foydalanish darajasi keskin ortgan. Bu ko'rsatkich nisbatan aholi bandligiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Fikrimizcha, agrar sohaning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyatiga qaramasdan qishloq mehnat bozori muammolari hozircha keng va chuqur tadqiq etilmagan. Bu qishloq mehnat bozori mohiyati, uning amal etish xususiyatlari, funksiyalari, mexanizmlari, eng asosiysi, aholi bandligiga ta'sir etuvchi geografik omillar bo'yicha aniq ilmiy xulosalar chiqarilmaganidan dalolat beradi. Aytish lozimki, suv resurslarining yaqin kelajakda kamayib borishini inobatga oladigan bo'lsak, agrar sohada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kamayishi, band bo'lgan aholi sonining qisqarishi kabi muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Biroq keyingi yillarda bu talabni bajarish borgan sari qiyinlashib bormoqda, bu esa mos holda ish bilan bandlik ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy holatdir.

Yer resurslari. Ma'lumki, jamiyatda yer resurslari va undan foydalanishda aholi bandligining muhim jihatlarini ko'rish mumkin. So'nggi yillarda yer resurslari O'zbekiston Res-publikasi yer fondi maydonlarining toifalari va dinamikasi bo'yi-cha taqsimlanishi ushbu resurslarning ko'p funksiyali ekanligini yana bir bor namoyon etmoqda. Respublikaning yerdan foydalanishiga oid rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 20,8 mln gektarni tashkil qiladi, shuning 4,3 mln gektari juda qadrlanadigan sug'oriladigan yerlardir [3]. Barcha qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulotlarning 95 foizi mazkur yerlar ulushiga to'g'ri keladi. Bugungi kunda hududlarda sug'oriladigan yerlar maydoni jami maydoniga nisbatan hisoblanganda eng yuqori bo'lgan hududlar Samarqand - 23,1, Qashqadaryo - 18,1, Surxondaryo - 15,7 foizni tashkil etadi. 15 foizdan past bo'lgan hududlar Buxoro - 6,9, Navoiy - 1,1 foizdan iborat (1-jadval).

1-jadval. Janbi-g'arbiy O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar maydoni

| № | Hududlar nomi | Umumiy maydoni (ming.kv) | Jami sug'oriladigan maydonlar (kv.km) | Umumiy maydoniga nisbatan jami sug'oriladigan yerlar maydoni (%) |
|-------------|---------------|--------------------------|---------------------------------------|--|
| 1 | Buxoro | 39,400 | 2749 | 6,9 |
| 2 | Qashqadaryo | 28,400 | 5149 | 18,1 |
| 3 | Navoiy | 110,800 | 1230 | 1,1 |
| 4 | Samarqand | 16,400 | 3795 | 23,1 |
| 5 | Surxondaryo | 20,800 | 3257 | 15,7 |
| Jami | | 215,800 | 16180 | 7,5 |

Jadval O'zR Suv xo'jaligi vazirligi va O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Tadqiqot ishida o'rganilayotgan hududlarda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning aholining bandlik darajasiga ta'sirini baholash uchun hududlardagi har bir iqtisodiy faol aholi soniga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yerlar maydoni o'rganildi (2-jadval). O'rganilayotgan hududlarda iqtisodiy faol aholiga nisbatan sug'oriladigan yerlar maydoni respublikadagi o'rtacha ko'rsatkichdan ancha past hisoblanadi. Nisbatan yuqori bo'lgan hududlarga Qashqadaryo (0,38 ga), Buxoro (0,31 ga) viloyatlari kiradi. Qolgan Surxondaryo (0,29 ga), Navoiy (0,27 ga), Samarqand (0,23) gektardan maydon to'g'ri keladi. O'rganilayotgan mintaqadagi o'rtacha ko'rsatkich 0,30 gektarni tashkil etadi (2-jadval). Yuqorida qayd etilgan tahlil va qishloq xo'jaligi yerlari, ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning aholi jon boshiga ulushi katta bo'lmasa-da, lekin qishloq hududlarida aholi bandligini ijobiy hal qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

2-jadval. Janbi-g'arbiy O'zbekistonning yer maydoni to'g'risidagi ma'lumot

| No | Hududlar nomi | Umumiy maydoni (ming.kv) | Aholining zichligi (1 kv.km) | Jami sug'oriladigan maydonlar (ming.ga) | Iqtisodiy faol aholi soni (2020) (ming kishi) | Iqtisodiy faol aholiga nisbatan sug'oriladigan yerlar maydoni |
|-------------|---------------|--------------------------|------------------------------|---|---|---|
| 1 | Buxoro | 39.400 | 49,1 | 274,9 | 881,9 | 0,31 |
| 2 | Qashqadaryo | 28.400 | 119,3 | 514,9 | 1317,9 | 0,38 |
| 3 | Navoiy | 110.800 | 9,3 | 123 | 440,9 | 0,27 |
| 4 | Samarqand | 16.400 | 240,4 | 379,5 | 1592,9 | 0,23 |
| 5 | Surxondaryo | 20.800 | 136,5 | 325,7 | 1108,3 | 0,29 |
| Жами | | Jami | 110,9 | 1618 | 5341,9 | 0,30 |

Jadval O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2022 yil 18 iyul kuni "Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni va aholi daromadlarini ko'paytirish" masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishida yil yakunigacha yana 20 ming gektar, kelgusi yilda 100 ming gektar, jami 200 ming gektar ekin maydoni aholi uchun ajratilishi ta'kidlandi. Bu orqali qo'shimcha 1 million 200 ming aholini band qilish uchun sharoit yaratilishi aytiladi [2]. Davlat Statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda respublika bo'yicha 8,0 mln tonna, shundan Samarqand viloyatida 1,2 mln, Qashqadaryo viloyatida 403, Surxondaryo viloyatida 876, Buxoro viloyatida 674 va Navoiy viloyatida 214 ming tonna sabzavotlar yetishtirilgan. Sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar yerlarni baholash ishlarini qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va yerdan foydalanuvchilar hamda ijara asosida foydalanuvchilarning davlat bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish sohaga qaratilgan muammolarni ijobiy hal qilish, qishloq hududlarida aholi bandligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa. O'rganilayotgan hududlarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyasini belgilash, boshqaruv qarorlarni qabul qilish jarayonini yaxshilash, boshqarish mexanizmlarining samarali turlarini joriy etish hamda fermer xo'jaliklari va



boshqa suv iste'molchilari suv resurslardan oqilona foydalanishni davrning o'zi talab qilmoqda. Yuqorida qayd etilgan tahlillar va qishloq xo'jaligi yerlari, ayniqsa, sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar yerlarni ba-holash ishlarini qishloq xo'jaligi yerlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va yerdan foydalanuvchilar hamda ijara asosida foydalanuvchilarning davlat bilan o'zaro munosabatlarini zamonaviy usullar yordamida tabaqalashtirish imkonini beradi. O'z navbatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda yerlarning qiymatini baholash va ularning natija-larini joriy etish katta amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

References:

1. Tojiyeva, Z.N., Ibragimov, L.Z., Sabirova, M.Sh. Territorial characteristics of social and environmental problems in the location of the population of Uzbekistan. Актуальные проблемы экологии и природопользования. Международной научно-практической конференции. Москва, 2021. pp. 127-135. Available from: <https://www.researchgate.net/>
2. Ibragimov, L. Z., Ubaydullayev, D. K. U., & Musayev, B. M. (2021). Opportunities And Prospects For Tourism Development In Jizzakh Region. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(02), 33-37. <https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue02-07>
3. Khamid Khudaybergenovich ABDURAMANOV & Lutfullo Ziyadullaevich IBRAGIMOV, 2015. "Regional Characteristics Of Demographic Development In The Republic Of Uzbekistan", SEA - Practical Application of Science, Romanian Foundation for Business Intelligence, Editorial Department, issue 7, pages 363-368, April. Available at: https://seaopenresearch.eu/Journals/articles/SPAS_7_51.pdf
4. Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, Musayev Bekzod Murodovich, & Mirzayev Farkhod Sayidovch. (2021). EMPLOYMENT OF POPULATION AND ITS GEOGRAPHICAL STUDY. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 163-167. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1400>
5. Ibragimov, L. Z., Ubaydullayev, D. K. U., & Musayev, B. M. (2021). Opportunities And Prospects For Tourism Development In Jizzakh Region. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(02), 33-37. <https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue02-07>
6. Ibragimov, L. Z., Shodiyorov, S.X. & Sultonmurodova, R.G'. (2022). Aholining ish bilan bandligini ta'minlashda xorijiy davlatlar tajribasi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(12), 73-82. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-12-73-78>
7. Ibragimov, L., Muminjonova S., Shodiyorov, S. (2022). The studying of theoretical issues of employment of population. «Обеспечение устойчивого развития в контексте географии, зеленой экономики, экологии и туризма». Международной научно - практической конференции. Актобе, 2022. pp.32-38. Available from: <https://www.researchgate.net/>
8. Ibragimov, L. Z., Sharipova, M.Z., Davranova, M.A. Agricultural zoning of the territory (A case study of Samarkand region). Международного научно-исследовательского конкурса. Петрозаводск, 2019. pp.214-222. Available from: <https://www.researchgate.net/>



9. Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich & Usmanxonova Dilshoda Farhodjon Qizi. (2021). SOME ISSUES OF STUDYING THE IMPACT OF DEMOGRAPHIC FACTOR ON EMPLOYMENT AND LABOR MARKET. *European Scholar Journal*, 2(7), 47-50. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/esj/article/view/1072>
10. Ibragimov, L., Akbarov, A & Ubaydullayev, D. (2021). EMPLOYMENT OF POPULATION AND FACTORS WHICH INFLUENCES IT. *Eurasian Union Scientists*, 5 (82), 4-7. <https://doi.org/10.31618/ESU.2413-9335.2021.5.82.1230>
11. Ibragimov, L. Z., Ubaydullayev, D. K. U., & Musayev, B. M. (2021). Opportunities And Prospects For Tourism Development In Jizzakh Region. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 3(02), 33-37. <https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue02-07>
12. Ибрагимов Л.З. (2021). Жануби-ғарбий Ўзбекистоннинг меҳнат бозоридаги вазият. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*. 60-жилд. Тошкент. 56-63 б. Available from: <https://www.researchgate.net/>
13. Ибрагимов Л.З. (2022). Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари. DSc автореферати. Тошкент, 63 б. Available from: <https://www.researchgate.net/>
14. Ибрагимов, Л. З., Негматов, С.Қ., Сулайманов, У.А. (2020). Саноат тармоқларининг аҳоли бандлигидаги аҳамияти. Комплекс географик тадқиқотлар: инновация ва амалиёт: Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Андижон, 64-68 б. Available from: <https://www.researchgate.net/>
15. Ибрагимов Л.З., Давранова Л.К., Давранова М.А. Тадбиркорликни ривожлантириш аҳоли бандлигини муҳим омили. Республика илмий-амалий конференцияси. – Фарғона, 2018. – Б. 14-18 б. Available from: <https://www.researchgate.net/>
16. Ibragimov, L.Z., Davranova, L.K., Davranova, M.A. (2018). Aholi bandligini oshirishdatadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati. *Ilmiy axborotnoma*. 3 (134). Samarqand. 165-168 b. Available from: <https://www.researchgate.net/>
17. Ibragimov L., Shodiyorov S. (2021). Changes in the structure of labor resources of southwest uzbekistan. "Innovations in Environmental Protection for Sustainable Socio-Economic Development: Global and Eurasian Partnership". International practical science conference. - Kokshetau. pp.192-194. Available from: <https://www.researchgate.net/>
18. Ибрагимов Л.З. (2015). Аҳоли бандлиги ва унинг ўзига хос хусусиятлари. *Ўзбекистон География жамияти ахбороти*. 46-жилд. Тошкент. – 143-145 б. Available from: <https://www.researchgate.net/>
19. Ибрагимов Л.З. (2015). Использование опыта развитых стран в развитии малого бизнеса и предпринимательства. *Евразийский научный журнал*. №11. ст.123-127 Available from: <https://journalpro.ru/>
20. Ибрагимов Л.З. (2015). Аналитические методы регрессии – корреляции в исследовании семейного предпринимательства. Современный взгляд на будущее науки. Международной научно-практической конференция. Уфа. – ст. 39-42. Available from: <https://www.researchgate.net/>